

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”



Qo‘qon davlat universiteti

rektori D.Sh.Xodjaeva

29-avgust 2025-yil

**TIL ASPEKTLARI AMALIYOTI (kechki)
FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60110900- Xorijiy til va adabiyot (Ingliz tili)

Fan/modul kodi		O‘quv yili	Semestr	ECTS-Kreditlar	
TAA112314		2025-2026	1-3	4/5/5	
Fan/modul turi majburiy		Ta’lim tili Ingliz/O‘zbek/Rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)		Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Til aspektlari amaliyoti	48/48/60		72/102/90	420
2	I. Fanning mazmuni Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga tilning uch muhim aspekti: grammatika, leksika va diskurs tahlilini o‘rgatish, muloqotda to‘g‘ri qo‘llash malakalarini rivojlantirish va til aspektlari to‘g‘risidagi amaliy va nazariy bilimlarini takomillashtirish hamda egallangan bilim, ko‘nikma, malakalarini kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qo‘llay olishlarini ta‘minlash, tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga xizmat qilib, o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etishdan iborat. Fanning vazifasi – umume’tirof etilgan xalqaro me’yorlarga ko‘ra o‘rganilayotgan chet tilini C1 darajada egallashlari uchun talabalarga o‘rganilayotgan xorijiy tilning grammatika, leksika va diskurs tahlili aspektlari asosida chuqur bilim berish orqali ularning erkin muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Til aspektlari amaliyoti fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalaridan biri bo‘lgan NUS, Singapore University universiteti (Singapur)ning Til aspektlari amaliyoti fanining o‘quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo‘yicha 6-o‘rinni egallagan bo‘lib, til sohasi bo‘yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg‘unligi – The building blocks of English sentences: word classes, phrases Tanqidiy fikrlash va tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish – talabalar huquqiy holatlarni mustaqil tahlil qilish, dalillarga tayangan holda huquqiy xulosa chiqarishni o‘rganadilar.				

1-Modul mazmuni. Kommunikativ leksika (soʻz boyligini oshirish) moduli

Mazkur modulning maqsadi talabalarning lugʻat boyligini oshirish va lugʻat boyligini boyitib borishning maqbul usullaridan foydalanishni oʻrgatish hamda oʻrganilayotgan chet tili leksikasining muloqotdagi xususiyatlarini farqlash va muloqotda qoʻllay olish qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Barcha mavzular kommunikativ yondashuvni qoʻllash orqali taqdim etilishi muhim ahamiyatga ega.

1-mavzu. Kirish- Lugʻatni oʻrganish;

Lugʻat — bu har qanday tilning asosi. Uni samarali oʻrganish sizning gapirish, yozish, oʻqish va tinglash qobiliyatini yaxshilaydi. Lugʻat yordamida yangi soʻzlarni eslab qolish, ularni kontekstda qoʻllash va oʻrganish jarayonini yanada qiziqarli qilishning turli usullari bilan tanishadi. Asosiy maqsad — soʻzlarni shunchaki yodlash emas, balki ularni ongli ravishda oʻz nutqida qoʻllashdir

2-mavzu. Ot (qoʻshma otlar, shaxs otlari, abstrakt otlar, sanoqli/sanoqsiz otlar);

Ot soʻz turkumi shaxslar, hayvonlar, joylar, narsa nomlari kabi guruhlariga boʻlinishini, sanoqli va sanoqsiz otlarni, abstract va aniq otlar guruhlari oʻrganiladi.

3-mavzu. Suffikslar, Prefikslar, Soʻz asoslari. Lugʻatlarni oʻrganish kursida soʻz boyligingizni oshirish va soʻz qismlarini tahlil qilish. Bu yondashuv orqali yangi soʻzlarni shunchaki yodlamasdan, balki ularning tuzilishini tushunib, mustaqil ravishda maʼnosini anglay olish.

4-mavzu. Qiziqarli kelib chiqishga ega soʻzlar. Soʻzlarning kelib chiqish tarixi, yaʼni etimologiyasi bilan tanishish orqali ularning maʼnosini chuqurroq anglash va eslab qolish osonlashtirish.

5-mavzu. Soʻzlarni bogʻlovchi va bogʻlaydigan soʻzlar

Buda nutqimiz va yozma ishda yanada ravon, mantiqan toʻgʻri va professional qilishga yordam beradi. Soʻzlarni va gaplarni oʻzaro bogʻlaydigan soʻzlar (conjunctions), iboralar (phrases) yoki bogʻlovchi soʻzlar (linking words) — bu tilda oʻz fikrini aniq va tushunarli yetkazishning kalitidir. Ular gaplar orasidagi munosabatni koʻrsatadi va matnni yaxlit, oʻqishga qulay qiladi.

6-mavzu. Sanaladigan va sanalmaydigan soʻzlar.

Sanaladigan soʻzlar — son bilan sanash mumkin boʻlgan, birlik va koʻplikda qoʻllanadigan otlardir. Sanalmaydigan soʻzlar — son bilan sanalmaydigan, faqat birlikda qoʻllanadigan otlardir.

7-mavzu. Odamlarni tasvirlash. Odamlarni tasvirlash – insonning tashqi koʻrinishi (boʻyi, gavdasi, sochi, koʻzi, kiyimi) va ichki xususiyatlarini (xarakteri, feʼl-atvori) ifodalashdir. Bu mavzuda sifatlar, ranglar va xarakter belgilaridan foydalaniladi

8-mavzu. Global muammolar. Butun insoniyat hayotiga taʼsir qiladigan muammolardir. Ularga ekologiya (ifloslanish, iqlim isishi), urush va tinchlik, qashshoqlik, ishsizlik, terrorizm, ocharchilik, global kasalliklar kiradi.

9-mavzu. Taʼlim, ish va sport. Taʼlim – bilim olish va oʻqitish jarayoni.

Ish – insonning kasbi va faoliyati. Sport – sog‘liqni mustahkamlovchi mashg‘ulotlar va musobaqalar.

10-mavzu. Kiyim va kiyimga oid so‘zlar

Kiyim – insonning kundalik hayotida zarur bo‘lgan, uni tashqi muhit ta’siridan (issiq, sovuq, shamol) himoya qiluvchi hamda estetik ehtiyojlarini qondiruvchi vositadir. Kiyimga oid leksik birliklar turlicha bo‘lib, ularga ko‘ylak, shim, yubka, palto, kostyum, futbolka, bosh kiyim va poyabzal kabi atamalar kiradi. Ushbu so‘zlar kiyim-kechakning turli ko‘rinishlarini ifodalashda qo‘llaniladi.

11-mavzu. Sog‘liq va tibbiyotga oid so‘zlar

Sog‘liq – inson organizmining normal faoliyat yuritish holati bo‘lib, jismoniy, ruhiy va ijtimoiy barqarorlikni o‘z ichiga oladi. Tibbiyot esa kasalliklarning oldini olish, ularni aniqlash va davolash bilan shug‘ullanuvchi soha hisoblanadi. Bu mavzuga oid so‘zlar qatoriga shifokor, hamshira, dorixona, dori-darmon, kasallik, davolash, jarrohlik kabi atamalar kiradi.

12-mavzu. Idiomalar

Idiomalar – ma’nosi tarkibidagi so‘zlarning lug‘aviy ma’nosidan farq qiladigan, ko‘chma ma’noda qo‘llaniladigan barqaror iboralardir. Ular nutqqa obrazlilik, ta’sirchanlik va ifoda boyligini beradi. Masalan: break the ice (tanishuvni osonlashtirmoq), spill the beans (sirni oshkor qilmoq).

13-mavzu. Atrof-muhit. Ob-havo va iqlim, Iqlim o‘zgarishi va ifloslanish. Xavf ostidagi dunyo

14-mavzu. Munosabatlar. Muhabbat va do‘stlik, Munosabatlarning past-balandliklari. Munosabatlar. Oila (yoki) Oilaviy qadriyatlar. Hissiyotlarga tegishli so‘zlar va iboralar.

15-mavzu. Madaniyatlararo muloqot. Madaniy xilma-xillik (yoki) Urf-odatlar. Davlatlarning o‘ziga xos madaniy me’rosi va ularning dunyoga yoyilishi.

16-mavzu. Ommaviy axborot vositalari: Gazeta va jurnallada foydalaniladigan lug‘aviy so‘zlar; Gazeta turlari : Reklamaga oid so‘zlarning turlari, Internet va ijtimoiy tarmoqlar.

Ma’lumotlarni ommaga yetkazib berishda qo‘llaniladigan leksik tushunchalar. Notiqlik madaniyati va odoblari.

17-mavzu. Maqollar

Maqollar – xalq og‘zaki ijodining ixcham va mazmunli shakli bo‘lib, hayotiy tajriba, donishmandlik va axloqiy qarashlarni ifodalaydi. Ular tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, nutqqa ta’sirchanlik va boylik beradi. Masalan: Mehnat qilgan to‘yadi, Bilim – boylikdan qadrli.

18-mavzu. Ingliz tili turlari

Ingliz tili turlari – turli mintaq va mamlakatlarda shakllangan, talaffuz, lug‘at va grammatik jihatdan farqlanadigan ingliz tili shakllaridir. Asosiy turlariga Britan ingliz tili, Amerika ingliz tili, Avstraliya ingliz tili, Kanada ingliz tili kiradi. Bu farqlar global muloqotda muhim o‘rin tutadi.

19-mavzu. Qisqartmalar

Qisqartmalar – so‘z yoki so‘z birikmalarining qisqa shaklda ifodalanishi bo‘lib, nutqda ixchamlik va qulaylik yaratadi. Ular asosan ilm-fan, texnika, siyosat va

ijtimoiy sohalarda keng qo'llaniladi. Masalan: O'zbekiston Respublikasi (O'zbekiston R.), BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), AQSh (Amerika Qo'shma Shtatlari).

20-mavzu. Yangi so'zlar

Yangi so'zlar – til taraqqiyoti jarayonida paydo bo'ladigan, jamiyat hayotida yuzaga kelgan yangi tushuncha va hodisalarni ifodalovchi birliklardir. Ular odatda ilm-fan, texnologiya, siyosat va madaniyatdagi yangiliklar bilan bog'liq holda shakllanadi. Masalan: internet, smartfon, onlayn, startap.

2-Modul. Kommunikativ grammatika moduli

Mazkur modul talabalarga 1-3 semestrlar davomida o'qitiladi. Modul talabalarning til modellari va strukturalari xaqidagi bilimlarini oshirish bilan birga o'rganilayotgan til grammatikasini muloqotda to'g'ri qo'llashni, muloqot jarayonida grammatik formalarni to'g'ri ishlatishni o'rgatish orqali lingvistik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan. Barcha mavzular kommunikativ yondashuvni qo'llash orqali taqdim etilishi muhim ahamiyatga ega.

1. Murakkab gaplar (Complex Sentences) va bo'ysundirish (Subordination)

Ergash gap turlari (hol, aniqlovchi, otli). To'g'ri bog'lovchilarni tanlash (although, even if, in case). Yozuvda ravonlik va murakkablikni oshirish.

2. Qo'shma gaplar (Compound Sentences)

Ikki yoki undan ortiq mustaqil gaplarning bog'lovchilar orqali birikishi. Bog'lovchilar (Coordinating conjunctions): and, but, or, nor, for, so, yet.

3. Inversiya (Inversion). Oddiy so'z tartibini o'zgartirish orqali ta'kid berish. Imtihonlarda formal uslub va dramatiklik uchun ishlatiladi.

4. Cleft sentences va ta'kidlash (Emphasis)

Gapning ma'lum qismini ajratib ko'rsatish. It-cleft va What-cleft usullari.

5. Murakkab shartli gaplar (Advanced Conditionals)

Haqiqiy bo'lmagan shartlarni ifodalash. Aralash vaqtlar bilan ishlash (If I had done it, I would be...).

6. Ellipsis va Substitutsiya

Gapda ortiqcha so'zlarni tushirib qoldirish. Qisqa va tabiiy og'zaki nutq yaratish.

7. Non-finite Clauses (Infinitive, -ing, Participle)

To + V, -ing, -ed shakllarini ergash gap o'rnida ishlatish. Yozuvni ixchamlashtirish.

8. Nisbiy gaplar (Relative Clauses, Advanced)

Defining va non-defining farqlari.
Qisqartirilgan nisbiy gaplar. IELTS Writingda “ko‘rkam” tuzilmalar yaratish.

9. Aktiv va passiv gaplar

Xabar fe‘llari bilan (It is believed that...).

Ikki to‘ldiruvchili passiv. Rasmiy maqola va hisobotlarda keng qo‘llanadi.

10. Modal fe‘llarning ehtimol, taxmin va ishonchlilik ma’nolari

must have, can’t have, may have tuzilmalarini o‘rgatish.

O‘tmishdagi taxminlar va hozirgi paytdagi ehtimoliylik.

11. Parallelizm va yozuvdagi uyg‘unlik (Parallelism & Cohesion)

Gap va ro‘yxatlarda parallel tuzilish.

Yozuvni professional va tushunarli qilish.

12. Discourse Markers va Hedging (yumshatib aytish)

Bog‘lovchi iboralar: on the other hand, moreover, nevertheless.

Yumshoq til ishlatish: It seems, It is likely.

3- Modul. Diskurs (matn) tahlili

1-mavzu. Turli janrlarning o‘ziga xos xususiyatlari (masalan, ilmiy ommabop asarlar, gazeta maqolalari, badiiy adabiyot va b.)

Mazkur mavzuda talabalar maqola, sharh, ocherk, esse, feleton, pamflet kabi yozma matn turlarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadilar va tahlil qiladilar.

2-mavzu. O‘zaro leksik munosabat (lingvistik omillarning qo‘llanilishi);

Mavzu o‘z ichiga mualliflarning matnda o‘z fikr qarashlarini ifodalashda foydalangan ko‘chma ma’nodagi so‘zlar, frazeologik iboralar, sinonim-antonimlar va turli sohaga oid terminlarning ma’nolari tahlil qilinadi.

3-mavzu. Matnda so‘zlar mutanosibli

YOzma matnlarni yaratishda bir xil so‘zlardan qochish va ularning o‘rniga so‘zlarning boshqa sinonimlaridan, frazeologik iboralardan va ko‘chma ma’noni ifodalovchi so‘z va to‘rg‘un iboralardan samarali foydalanish masalalari o‘rganiladi va tahlil qilinadi.

4-mavzu. Rasmiy, norasmiy, maxsus matnlar

YOzma matnlarning maqsad va vazifasiga ko‘ra yaratish masalalari, ularning tarkibiy qismlari va hajmiga ko‘ra turlari o‘rganiladi va tahlil qilinadi.

5-mavzu. Grammatika va diskurs; (matnda grammatik kategoriyalarning qo‘llanilishi)

YOzma matn turlarida grammatik kategoriyalarning ahamiyati, jumladan matn maqsad va vazifasiga ko‘ra qanday grammatik strukturalardan foydalanish masalalari o‘rganiladi va tahlil qilinadi.

6-mavzu. Yozma nutqda grammatika va leksikani qo‘llash

Matn tuzishda soʻz va grammatik kategoriyalarni tanlashga taʼsir kursatuvchi asosiy omillar (masalan: audiensiya, matnning qanday auditoriya va kim uchun moʻljallanganligi, yozma matnning maqsadi va h.k.); mazkur mavzu oʻz ichiga yozma matnlarni yaratishda kim uchun va qanday maqsadga koʻra yaratilishi inobatga olingan holda qanday grammatik kategoriya va leksikani tanlash masalalari oʻrganiladi. Jumladan, agar matn maʼlum bir soha vakillari uchun yaratilsa undagi soʻzlar va grammatik kategoriyalar asosan rasmiy uslubda boʻladi va sohaga oid soʻzlardan keng foydalaniladi.

7-mavzu. Nutq va uning funksiyalari hamda ularning oʻziga xos xususiyatlari:

Mazkur mavzu ogʻzaki matn/muloqot turlari hisoblanga telefon suhbatlari (biznes yoki shaxsiy masalalarda), xizmat koʻrsatish shahobchalari (doʻkonlar, kassalar va h.k.), intervyular (ishga joylashishda, jurnalist sifatida, rasmiy vaziyatlarda), kundalik muloqotlar (notanish kishilar, doʻstlar, qarindoshlar bilan), kishilarga yoʻl koʻrsatish, maslahat berish (ishda, uyda, koʻchada) matn turlarining oʻziga xos xususiyatlari, ularning tarkibiy qismlari, maqsad va vazifalarini tahlil qilish matn namunalari asosida oʻrgatish va tahlil qilishni oʻz ichiga oladi;

8-mavzu. Ogʻzaki muloqot

Telefon suhbatlari (biznes yoki shaxsiy masalalarda), xizmat koʻrsatish shahobchalari (doʻkonlar, kassalar va h.k.), intervyular (ishga joylashishda, jurnalist sifatida, rasmiy vaziyatlarda), kundalik muloqotlar (notanish kishilar, doʻstlar, qarindoshlar bilan), kishilarga yoʻl koʻrsatish, maslahat berish (ishda, uyda, koʻchada);

9-mavzu. Ogʻzaki nutq - monologlar

(nutqlar, hikoyalar, hazil-mutoyibalar), ish-harakatni ifodalovchi til birliklari (ish- harakat bajarilayotgandagi nutq: biror narsani tuzatish jarayonida, ovqat tayyorlayotganda, biron narsa yasayotganda h.k), audioriyada (maktab sinfxonasida) qoʻllanadigan nutq (darsda, seminar mashgʻulotlarida, maʼruzalarda, qoʻshimcha darslarda);

10-mavzu. Grammatika va ogʻzaki diskurs(oldindan tayyorlanmagan nutqda grammatikaning oʻrni);

Ushbu mavzu orqali talabalar ogʻzaki nutqda grammatikaning ahamiyati, grammatik qoidalarga rioya qilish va qilmaslik muammolari va ularning sababali va oʻz xos xususiyatlarini oʻrganadilar va tahlil qiladilar.

11-mavzu. Ogʻzaki nutqning fonologik xususiyatlari: urgʻu, intonatsiya, pauza.

Fonologik xususiyatlarning ogʻzaki nutqdagi ahamiyati, ularning turli maqsad va vazifalarga koʻra qoʻllanilishi masalalari, turli millat vakillarining ingliz tilidagi fonologik xususiyatlarga ona tilining taʼsiri muammolari va urgʻu, intonatsiya va pauzaning maʼnosi, uning nutqga taʼsiri tahlil qilinadi va oʻrganiladi;

12-mavzu. Muloqotning oʻziga xos xususiyatlari: muloyim soʻzlashish, soʻzlarda bogʻliqlikni taʼminlash: ikkilanish va pragmatik strategiyalar (gapni toʻldirish yoki izoh berish);

Ogʻzaki muloqotda nafaqat til balki ekstra lingistik omillar ham oʻz ahamiyatiga ega. Mana shunday omillar hisoblangan xushmuomalalik, fikrlarning

davomiyligi yoki o'zgarib ketishi va pragmatik strategiyalar mazkur mavzu orqali matn namunalari misolida ularning maqsad va vazifalari tahlil qilinadi va o'rganiladi.

III. Amaliy mashg'ulotlar buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar davomida talabalar yakka holda, juftlikda va kichik guruhlarda ishlaydilar. O'qitish metodikasi amaliy vazifalar, dolzarb maqolalar muhokamasi, turli janrdagi matnlarni PIRLS – dasturi orqali ya'ni syujetning mantiqiy tuzilishiga rioya qilish muhimdir. Matnda oddiy va murakkab gaplarning bir xil ishlatilishini ta'minlash, agar dialog ustunlik qilsa, ma'lumotni birlashtirib, murakkab gaplarni qo'shish kerak bo'ladi. Axborot matnda esa matnning strukturasi va ma'lumotning mantiqiy ketma-ketligini sarlavhalar, jadvallar, grafiklar kabi visual elementlar bilan bog'liqligini kuzatish shartdir. Internet matnlari bilan ishlash, o'quvchilar matndan axborot topa olish, matn shakli va tilining ba'zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o'z xulosalarini chiqarish, tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarini baholovchi testlar va mustaqil o'qishga yo'naltirilishi lozim. Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

- 1 Grammatik strukturalar (sodda, murakkab va qo'shma gaplar va h.k.) ni muloqotda qo'llash
- 2 Strukturalarni farqlay olish, ularni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri ishlatish
- 3 O'rganilayotgan til grammatikasi model va strukturalarining o'ziga xos xususiyatlarini ajrata olish va ularni o'zlashtirish uchun o'z ona tili tizimi bilan taqqoslash
- 4 Ibora hamda og'zaki nutqda qo'llaniladigan so'zlarning ko'chma va to'g'ri manosi bilishi va to'g'ri qo'llash
- 5 Lug'at boyligini oshirish uchun manbalar (lug'atlar, registrlar, so'z ko'rsatkichlari va boshqalar)
- 6 Frazologik birliklar, fe'llar
- 7 So'z yasashining o'ziga xos xususiyatlari
- 8 Qisqartma so'zlar
- 9 So'z birikmalari
- 10 Qarindosh va bir oilaga mansub so'zlar
11. Professional va akademik terminologiya
12. Kontekstga mos bo'lgan hamda korpus-analiz bazasidagi so'zlar
13. Turli janrlarning o'ziga xos xususiyatlari (masalan, ilmiy-ommabop asarlar, gazeta maqolalari, badiiy adabiyot va b.)
14. O'zaro leksik munosabat (lingvistik omillarning qo'llanilishi).
15. Matnda so'zlar mutanosibligi

	16. Rasmiy, norasmiy, maxsus matnlar Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan ijodiy va tahliliy ishlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
	V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • Til aspektlari amaliyoti fani asoslarini, o'rganilayotgan asosiy chet tilini Umum Yevropa standartlariga ko'ra C1 darajada o'zlashtirishi, o'rganilayotgan chet tilida o'qish va yozuv ko'nikmalarini turli strategiyalarni qo'llay olish orqali egallashi, tushunish va muhokama qilish uchun bosqichma-bosqich turli matn turlari bilan ishlash usullari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim). • Til aspektlari amaliyoti fanini o'zlashtirgan talaba o'z fikr va mulohazalarini lingvistik kurs mavzularidan kelib chiqqan holda yozma ravishda aniq va mantiqiy bayon etishi matnni tushunish maqsadida turli strategiyalarni bilishi va ulardan foydalana olishi;(ko'nikma). • Til aspektlari amaliyoti fanini o'qitishda ta'lim texnologiyalari, tarqatma materiallar, elektron darsliklar va qo'llanmalar, internet ma'lumotlari, lokal tarmoqdagi turli o'quv, ilmiy bilimni nazorat qilish bo'yicha ma'lumotlar jamlamasidan foydalaniladi. Mustaqil ta'lim, aqliy hujum, vaziyatli masalalarni yechish, diskussiya, rolli o'yinlar, referatlar yozish kabi pedagogik usullar bilan fanning o'qitilishi amalga oshiriladi va talabalarni baholay olish to'g'risida malakalariga ega bo'lishi kabi ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (malaka)
	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • interfaol keys-stadilar; • mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar; • kommunikativ metodlar; • kognitiv metodlar;
	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: O'rganilayotgan xorijiy tilni grammatika, leksika va diskurs tahlili asosida chuqur o'rganish, Yevropa Kengashining "Chet tilini egallash umumyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" to'g'risidagi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlari (CEFR) bo'yicha chet tilini bosqichma-bosqich B2 dan C1darajagacha egallash, chet tilida erkin muloqotga kirishish, joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni plagiatga yo'l qo'ymasdan bajarish hamda o'z vaqtida topshirish.

Asosiy adabiyotlar

1. McCarthy, M. and O'Dell, F., Redman, S. English Vocabulary in Use upper intermediate and advanced (1 kurs)) Cambridge: CUP (3rd edition) UK, 2012
2. Malcolm Mann, Steve Taylor-Knowles Destination (book 1&2) (2013) Macmillan Education UK,
3. Michael McCarthy. (2017) English Vocabulary in Use. Advanced. Cambridge. (2 kurs)
4. Stephen H. Thewlis. (2007) Grammar Dimensions. Heinle & Heinle
5. McCarthy, M. (2009) Discourse Analysis for Language Teachers. Cambridge: CUP. UK,
6. Developing Grammar in Context Mark Nettle Cambridge University Press 2008 Textbook 81.432.1 H 79 925 738 №1
7. <https://www.ucl.ac.uk/english-sage/archives/2022report.htm>,
8. [Generative Syntax – University Scholars Programme](#).

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
2. **Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. – 48 b.**
3. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- Toshkent, 2021. -458 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi “Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ–53-sonli qarori
6. Elaine Walker, Steve Elsworth (2000) Grammar Practice for Upper Intermediate Students, Edinburg, Longman (1 kurs)
7. Guisi Cavellaro (2002) Exploring Grammar in Context, Cambridge, CUP (1 kurs)
8. Michael Swan, David Baker, (2008) Grammar Scan, Oxford, OUP (1 kurs)
9. Ruth Gairns, Stuart Redman, (2009) Oxford Word Skills, Oxford, OUP

	10.Vince M., (2011) First Certificate Language Practice (English Grammar and Vocabulary).4th edition. Macmillan. (1 kurs) Axborot manbalari 1. https://ibratfarzandlari.uz/ 2. www.teachingenglish.org.uk 2. www.onestopenglish.com 3. www.businessenglishonline.net 4. www.elgazette.com 5. www.tesol.org 6. www.tefl.com 7. www.teachertrainingvideos.com 8. www.learnenglish.org.uk 9. www.educationuk.org 10. www.bbc.co.uk/worldservice/learningenglish 11. www.channel4.com/learning 12. www.better-english.com/exerciselist.html 13. www.bbc.co.uk/worldservice/learningenglish/business/index.shtml 14. www.englishclub.com/index.htm 16. www.Grammarly.com/Grammar 17. www.macmillanenglish.com/readers
7	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8	Fan/modul uchun mas’ullar va dastur mualliflari: Sh.Saliyeva- Qo‘qon davlat universiteti “Xorijiy tillar metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi Z.Nazarova - Qo‘qon davlat universiteti “Xorijiy tillar metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi
9	Taqrizchilar: M.Solijonov,Qo‘qon davlat universiteti “Xorijiy tillar metodikasi” kafedrası dotsenti, Ph.D